

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/02.30.12.2019. TAR.45.01. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI

MAMIROV OMON O'KTAMOVICH

**SHIMOLI-G'ARBIY USTRUSHONA MODDIY VA MA'NAVIY
MADANIYATI
(arxeologik materiallar asosida)**

07.00.06 – Arxeologiya (tarix fanlari)

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Mamirov Omon O'ktamovich

Shimoli-g'arbiy Ustrushona moddiy va ma'naviy madaniyati (arxeologik materiallar asosida) 3

Мамиров Омон Уктамович

Материальная и духовная культура Северо-западной Уструшаны (по археологическим материалам) 23

Mamirov Omon Uktamovich

Material and spiritual culture of northwestern Ustrushana (based on archaeological materials) 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 46

**MILLIY ARXEOLOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/02.30.12.2019. TAR.45.01. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

MILLIY ARXEOLOGIYA MARKAZI

MAMIROV OMON O'KTAMOVICH

**SHIMOLI-G'ARBIY USTRUSHONA MODDIY VA MA'NAVIY
MADANIYATI
(arxeologik materiallar asosida)**

07.00.06 – Arxeologiya (tarix fanlari)

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Tashkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Tar 113 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Milliy arxeologiya markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.archaeology.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asqarov Axmadali Asqarovich
Tarix fanlari doktori, professor, akademik

Rasmiy opponenlar:

Suleymanov Rustam Xamidovich
Tarix fanlari doktori, professor

Pardayev Muxtorqul Hasanovich
Tarix fanlari nomzodi, dostent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Milliy arxeologiya markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/02.30.12.2019. Tar.45.01. raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « » mart kuni, soat dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy.) Tel.: (+99871) 262-64-62; e-mail: uzarchae@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi kutubxonasi va Fanlar akademiyasi Fundamental kutubxonasida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyolilarko'chasi, 13-uy.) Tel.: (+99871) 262-74-58; Faks: (99871) 262-34-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil « ____ » _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A. Maqsudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d. professor.

D. X. Murodova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.n.

A. A. Anarbayer
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon arxeologiyasida qadimgi xalqlarning diniy va mifologik qarashlarini yoritishda arxeologik yodgorliklarda aniqlangan qurilmalar, dafn bilan bog‘liq inshootlar, xususan mozor qo‘rg‘onlardan qo‘lga kiritilgan arxeologik artefaktlar orqali moddiy va ma‘naviy madaniyatni ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon arxeologiyasida yangi usullarining paydo bo‘lishi moddiy madaniyat ashyolarini o‘sha davr jamiyatining dunyoqarshi va e‘tiqodini aks ettiruvchi manba sifatida yoritib berish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shu sababdan moddiy va ma‘naviy madaniyatning tarixiy taraqqiyoti masalalari jahon arxeologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan Fransiya, Germaniya, Chexiya, Rossiya, Xitoyda O‘rta Osiyo xalqlari moddiy madaniyati, diniy qarashlariga oid masalalarda ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada Markaziy Osiyoning qadimgi savdo yo‘llarida joylashgan shaharlarda olib borilgan arxeologik qazilma ishlarida qo‘lga kiritilgan moddiy va ma‘naviy madaniyatga dahldor bo‘lgan topilmalar o‘sha davr aholisining e‘tiqodi, hunarmandchiligi, amaliy san‘ati, kabi masalalarini talqin etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda Markaziy Osiyoning qadimgi tarixiy-madaniy o‘lkalaridan bo‘lgan Ustrushonani Sharq va G‘arb mamlakatlarini o‘zaro bog‘lashda muhim o‘rin tutgan hudud sifatida o‘rganilmoqda. “Vatanimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega”¹. “O‘zbekiston Respublikasi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi taraqqiyot strategiyasi”²ning 76-maqсадida keltirilgan vazifalar, jumladan Respublika hududida joylashgan madaniy meros ob‘ektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog‘liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish borasidagi ishlar doirasida Ustrushona hududidagi qadimgi Eski Xovos, To‘rtko‘ltepa, Jelli g‘uli, Sayxonsoy yodgorliklarini tizimli o‘rganish dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni³, 2017-yil 17-fevraldagi 2789-sonli “Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент, “O‘zbekiston”, 2021. – Б. 37.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли « Respublikasi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” Farmoni.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги Фармони. <https://lex.uz/docs/3107036>; 2017 йил 17 февралдаги “Фанлар академияси фаолияти, илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорлари. <https://lex.uz/docs/-3117025> ; 2018 йил 18 январь “Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармойиши. <https://lex.uz/docs/3506332>; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 16 февралдаги “Ахсикент археология мероси объектини муҳофаза қилиш ва тадқиқ этиш ёдгорлик мажмуасини ташкил қилиш тўғрисида”ги, <https://lex.uz/docs/3382160>; 2019 йил 21 сентябрдаги 792-сон “Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарорларида <https://lex.uz/docs/4524476>.

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi, 2018-yil 19-dekabrdagi 4068-sonli “Moddiy-madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi Qarorlari, 2018-yil 18-yanvar 5181-sonli “Moddiy, madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida’gi Farmoni, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktyabrdagi 831-sonli “Axsikent arxeologiya merosi ob’ektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil qilish to‘g‘risida’gi, 2019-yil 21-sentyabrdagi 792-son “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida’gi Qarorlarida belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xalqimizning boy tarixi, moddiy va madaniy merosini ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilish va boyitib borish kabi vazifalarni ma’lum darajada bajarishga mazkur tadqiqot xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ustrushona hududida o‘troq va ko‘chmanchi aholiga oid yodgorliklar XX asrning 40- yillaridan o‘rganila boshlandi. 1970-90 yillarda shimoli-g‘arbiy Ustrushona hududida O‘zR FA Arxeologiya Instituti ilmiy xodimlari A.E. Berdimurodov⁴, S.R.Raximov⁵, U.A.Alimov⁶, M.X.Pardayev⁷, A.A.Gritsina⁸, L.M.Sverchkov⁹ va boshqalar tadqiqotlar olib borishdi. Tojikiston tarkibiga kirgan sharqiy va janubiy Ustrushona hududi esa turli yillarda N.N.Negmatov¹⁰, Ye.D.Saltovskaya, T.P.Kiyatkina¹¹, A.K.Mirbabaev¹², S.Sh.Marafiev, A.R. Ayubov¹³ va boshqa arxeologlar tomonidan o‘rganilgan. Ular

⁴ Бердимуродов А. Э. Раннесредневековые археологические памятники Джизакского оазиса. АКД. –Москва, 1985. – С 23.

⁵ Рахимов С. Р. Годовой отчет Джизакского археологического отряда института археологии АН Уз ССР (за 1970 г.). Архив Мин. Культура РУз. А. 3337/P27., Бадахов Р. А. Отчёт о полевых работах Джизакского археологического отряда в сезоне 1982 г. Архив ИА АН РУз. – Самарканд, 1982. л. 6-7, Ф.6, О.1, Д.13а.

⁶ Алимов У. А. Отчёт о полевых работах Джизакского археологического отряда за 1983 г. //Архив ИА АН РУз. – Самарканд, 1985.12 л.Фонд.6.Оп.1.Д 7.

⁷ Пардаев М. Х., Гофуров Ж. И. Ғарбий Уструшонадан топилган зардуштий қавм излари // Ўзбекистон археологияси. №1(2). – Самарканд, 2011 й., Пардаев М. Х. Отчёт об археологическом изучении памятников истории материальной культуры в зоне орошения и освоения земель Кизильинского массива за 1985-1987гг. Архив ИА АН РУз. –Самарканд, 1987. Д.5., Пардаев М. Х. 1992 йил археология қазув таджикотлари тўғрисида Жиззах отряди хисоботи. ЎзР ФА АИ Архиви. – Самарканд,1993. л.16Ф.6, О.1, Д.29.,

⁸ Грицина А. А. Отчёт о работах Сырдаринского отряда в 1990 г. Архив ИА АН РУз. – Самарканд,1990. л.13-16, Ф6, О.1, Д. 23(а)., Грицина А. А. Отчёт о работах Зааминского отряда в 1994 г. Архив ИА АН РУз. – Самарканд,1995. л.11, Ф6, О.1, Д.33., Грицина А. А. Отчёт по археологическим работам 2005 год. Архив ИА АН РУз. – Самарканд, 2006. л.7, Ф6, О.1. Д.44., Грицина А. А. Отчёт о Зааминского отряда в 2001 году. – Самарканд, 2002. л.12-13, Ф6, Д40., Грицина А. А. Отчёт о работах Зааминского отряда в 1994 г. Архив ИА АН РУз. –Самарканд, 1995. –С. 9-10, Ф 6, О.1, Д.33.,

⁹ Алимов У. А., Сверчков Л. М. Работы в Джизакской области //АО. –Москва, 1984. –С. 101-102

¹⁰ Негматов Н. Н. Историческо-географическое очерк Уструшаны с древних времен по X веков н.э. // МИА. – Москва, 1953. -№ 37. –С. 12.

¹¹ Негматов Н. Н., Е. Д. Салтовская, Т. П. Кяткина. Изучение погребальных памятников кочевников на территории Уструшаны // АРТ- № VI (1958г). –Сталинабад,— 1961. –С. 137-154;

¹² Мирбабаев А. К. Дахмаки Курката и проблемы зороастрийской идеологии в Северной Средней Азии. – Автореф. дисс.на соискание уч.степени докт.истор.наук. – Душанбе, 1995. –С. 56

¹³ Аюбов А. Р. Элементы культа животных у народов Уструшаны в древности // Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера).

qadimgi va o'rta asr o'troq sivilizatsiya yodgorliklarini xamda ko'chmanchi chorvador aholi mozorqo'rg'onlarni ham keng qamrovli tadqiq qilishdi.

Jizzax va Sirdaryo viloyati hududlarida joylashgan Shimoliy-G'arbiy Ustrushonaning yodgorliklarini A.A.Gritsina¹⁴, M.X.Pardayev¹⁵, F.E.Toshboyev¹⁶ va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Bundan tashqari, A.A.Gritsina rahbarligi ostidagi Sirdaryo otryadi tomonidan Sirdaryo viloyatidagi arxeologik yodgorliklar keng o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazi ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvoviq, "Markaziy, Shimoliy-Sharqiy O'zbekistonning ilk va rivojlangan o'rta asrlar tarixiy topografiyasi (arxeologik materiallar misolida)" mavzusidagi (F1-FA-0-1975) raqamli fundamental tadqiqot loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi Ustrushona hududidan topilgan moddiy ashyolarning qadimgi va ilk o'rta asrlar moddiy madaniyati tarixini hamda tarixiy geografik o'lka aholisining ma'naviy madaniyati hususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Shimoli-g'arbiy Ustrushona yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida qo'lga kiritilgan materiallarni ilmiy muomalaga kiritish;

ko'chmanchi chorvador aholiga tegishli mozorqo'rg'onlar ma'lumotlarini tahlil qilish, ilmiy muomalaga kiritish, ilk o'rta asrlarga oid dafn inshootlari va buyumlarini urf-odatlarining bir qismi sifatida o'rganish;

Shimoli-g'arbiy Ustrushona moddiy va ma'naviy madaniyatini shakllanishida asosiy omillarni ochib berish;

Ustrushona hududi moddiy va ma'naviy madaniyati rivojlanishida mahalliy an'analar va boshqa hududlardan kirib kelgan an'analar o'rni va aloqalarini ochib berish.

¹⁴ Грицина А. А. Об оссуарном обряде в Уструшане // ОНУ. № 1. 1998. –С. 89-94., Грицина А. А. Чашкалендарь XII в. // San'at. –Т. 1999. № 2. –С. 6-7., Грицина А. А. О погребениях в хумах в Зааминском тумане // История материальной культуры Узбекистана. ИМКУ. Вып. 30. –Самарканд. 1999. –С. 223-225., Грицина А. А. Уструшанские были. – Ташкент. 2000. –С. 244., Gritsina A. Avesto's Roots of Ustrushana // "Avesta" and its place in the development of humanity. –Tashkent, 2001. –P. 175-176., Грицина А. А. Терракотовая статуэтка из Уструшаны // Средняя Азия. История. Культура. Материалы международной конференции, посвященной 50-летию научной деятельности Г. В. Шишкиной. – Москва, 2001. –С. 148-150., Грицина А. А. О погребениях в хумах и оссуариях, найденных близ Заamina // Тезисы докладов. Международного симпозиума, посвященного 100-летию со дня рождения С. П. Толстого. –Нукус–Беруни, 2007. –С. 34-36., Грицина А. А. Заамин как идеологический центр раннесредневековой Уструшаны // «Жиззах вохаси – Марказий Осиё тарихида (Республика микёсидаги илмий-амалий конференция материаллари). –Жиззах, 2019. –Б. 24-27.

¹⁵ Пардаев М. Х. Северо-западная Уструшана в эпоху раннего средневековья (по материалам нижнего течения Санзара): Автореф. Дис. канд. ист. наук. –Ташкент, 1995., Грицина А. А. Кочевники в Уструшане (на примере изучения курганов в Сырдарьинской и Джизакской областях) // Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии. МИЦАИ. – Самарканд-Бишкек. 2005. –С.186-195., Грицина А. А. Изучение курганов в Сырдарьинской области. //ИМКУ. –Самарканд, 1997. -№.28, – С.74., Грицина А. А. Северная Уструшана в середине I тысячелетия до н.э. начало XIII вв. н.э. (арх.-топ. исс.). // Автореф. дис....канд. ист. наук. – Самарканд, 1990.

¹⁶ Toshboyev F. E. Ustrushona k'chmanchi chorvador halqlarining antik davrdaги madaniyati va ijtimoiy siёсий haёti. Tarix fanlari nomzodi ilmiy dаражасини олиш учун ёзилган диссертация qўлёзма nusxasi. –Жиззах, 2011.

Tadqiqotning ob'ektini Ustrushonaning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini Ustrushonaning qadimgi va ilk o'rta asrlar davriga oid yodgorliklar, moddiy ashyolar, qurilmalar, dafn inshootlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tarixiylik, qiyosiy-tasniflash, diaxron va tarixiy-retrospektiv kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Eski Xovos va To'rtko'ltepa yodgorliklari xonalarida aniqlangan to'rtburchak shakldagi mehroblar, topilgan tutatqidonlar va ayol ma'buda haykalchalari asosida ushbu hududda qadimgi mahalliy e'tiqod va an'analar shakllanganligi aniqlangan;

Jelli g'uli mozorqo'rg'onlari bronza davriga oid andronova madaniyatining so'nggi bosqichida yashagan aholi vakillariga oidligi aniqlangan;

Sayxonsoy mozorqo'rg'onlari orqali tog'li va adir hududlarida yashagan ko'chmanchi chorvador aholi dafn usullari va an'analari turlicha bo'lganligi aniqlangan;

Ustrushona aholisi moddiy va ma'naviy madaniyati otashparastlik, ajdodlar ruhiga e'tiqod, hayvon kulti kabi e'tiqod shakllari negizida o'zaro uyg'unlikda shakllanganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ustrushona xududida joylashgan Eski Xovos, To'rtko'ltepa yodgorliklari mozorqo'rg'onlarida aniqlangan qurilmalar umumlashtirilib o'sha davr dafn udumlari aniqlangan;

Jelli g'uli, Sayxonsoy mozorqo'rg'onlaridan aniqlangan qurilmalar, moddiy ashyoviy manbalar va ma'lumotlar umumlashtirilib aniqlangan;

Ustrushona aholisi moddiy va ma'naviy madaniyati turli e'tiqod unsurlarining qorishuvi natijasida shakllanganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dala tadqiqotlarida qo'lga kiritilgan arxeologik manbalarni etnografik materiallar bilan qiyosiy-tahliliy tadqiq qilinishi, arxeologiyada keng qo'llanilayotgan aniq, tabiiy fanlar natijalaridan foydalanish usullari va nazariy-amaliy yondashuvlarning qo'llanilganligi, shuningdek, tarixiy va arxeologik ilmiy adabiyotlardan keng foydalanilganligi, ilmiy xulosalar va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mazkur mavzuga oid nazariy-amaliy yondashuvlar Ustrushonaning qadim va ilk o'rta asrlar davri ma'naviy madaniyati, urf odatlari, diniy qarashlarini o'rganish orqali qo'lga kiritilgan yangi ma'lumotlar Markaziy Osiyo halqlari madaniyatini o'rganishga, shu bilan birga, qadimgi davr tarixiga doir ilmiy-nazariy, qiyosiy tahlil va umumlashtirish uslublarini yanada takomillashtirishga hizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlar talabalari uchun yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda, muzeylarda, ekspozitsiyalarni tashkil etishda hamda o'zbek xalqi tarixiy-moddiy merosini targ'ib qilishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Shimoli-gʻarbiy Ustrushona moddiy va maʼnaviy madaniyati (arxeologik materiallar asosida)» mavzusidagi dissertatsiya boʻyicha qoʻlga kiritilgan ilmiy natijalar asosida:

Eski Xovos va Toʻrtkoʻltepa yodgorliklari xonalarida aniqlangan toʻrtburchak shakldagi mehroblar, topilgan tutatqidonlar va ayol maʼbuda haykalchalari asosida qadimgi mahalliy eʼtiqod va anʼanalar shakllanganligi hamda Jelli gʻuli mozorqoʻrgʻonlari bronza davriga oid andronova madaniyatining soʻnggi bosqichida yashagan aholi vakillariga oidligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan Sirdaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondlarini boyitishda va faoliyatini yuritishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023 yil 8 sentabrdagi 02-18/3156 son maʼlumotnomasi). Natijada muzeyga tashrif buyuruvchilarda qadimgi tariximizga doir yangi maʼlumotlar toʻgʻrisida tushunchalar shakllandi;

Sayxonsoy mozorqoʻrgʻonlarini oʻrganish orqali togʻli va adir hududlarida yashagan koʻchmanchi chorvador aholi dafn usullari va anʼanalari turlicha boʻlganligi hamda Ustrushona aholisi moddiy va maʼnaviy madaniyati otashparastlik, ajdodlar ruhiga eʼtiqod, hayvon kulti kabi eʼtiqod shakllari negizida oʻzaro uygʻunlikda shakllanganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan “Oʻzbekiston tarixi” kanalining “Tarixiy savol” koʻrsatuvi ssenariylarini tayyorlashda keng foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023 yil 25 sentabrdagi 08-32-1606 son maʼlumotnomasi). Natijada, Shimoli-gʻarbiy Ustrushonaning qadimgi va ilk oʻrta asrlar davri moddiy va maʼnaviy madaniyatiga oid shu paytgacha fanga kiritilmagan yangi jihatlar, aholi ongida shakllangan eʼtiqod turlari, amaliy sanʼat va hunarmandchilikda aks etgan unsurlar toʻgʻrisida yanada koʻproq tushunchalar hosil boʻlgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 12 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro konferensiya va 9 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta, xorijiy jurnalda 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Ishning hajmi 149 bet, unga 48 bet jadvallar, foto va chizmalardan iborat illustrativ albom ilova qilingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy

etilishi, aprobatsiyasi va ishning tarkibiy qismi va xajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ustrushona o'lkasining tabiiy geografik sharoiti, qadimgi va ilk o'rta asrlar davri tarixining arxeologik o'rganilishi”** deb nomlanib, bobning birinchi paragrafida **“Ustrushona o'lkasining tabiiy-geografik sharoiti”** o'lkaning tabiiy geografik va iqlim sharoiti to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ustrushonaning tabiiy geografik sharoiti tog'-tog'oldi, adirdasht va cho'l-tekislik mintaqalaridan iborat. Ma'lumotlar tahlili ko'rsatishicha tarixiy geografik o'lkaning tabiiy geografik sharoiti bu yerda turli xil xo'jalik tartibini yuritish imkonini bergan. Jumladan, tog'-tog'oldi mintaqasida yashagan aholi chorvachilik va lalmi dehqonchilikdan iborat aralash xo'jalik yuritishgan. Tog'li mintaqadagi yassi tekisliklar o'simlikga boy yaylovlardan, shuningdek, tekis supalar lalmi dehqonchilik uchun ham sharoit yaratgan. Biroq qishning uzoq davom etishi va sovuqligi bu hududda uzoq vaqt muqim yashash imkonini qiyinlashtirgan. Biroq tog'li mintaqaning ayrim qismlaridagi yer ustiga yaqin qazilma boylıklar hududda konchilik sohasi bilan ham shug'ullanishga imkon bergan. O'lkaning adirdasht mintaqasi bahor faslida yog'ingarchilik miqdorining yaxshiligi bois chorva uchun ozuqaga boy maydonlarni hosil qilgan. Shu bilan birgalikda iqlim sharoiti lalmi dehqonchilikning ham shakllanganligi haqida fikr aytish imkonini beradi. Bugungi kundagi etnografik ma'lumotlar ham adir qismida hozirda ham lalmi dehqonchilik rivojlanganligini ko'rsatmoqda. Shuningdek bu hududda tog'lardan tushuvchi soylar va daryolar vodiysida sug'orma dehqonchilik, bog'dorchilik ham shakllangan. Uchinchi mintaq bo'lmish dasht-cho'l tekislik mintaqasida aholi anchagina zich yashagan bo'lib, sug'orma dehqonchilik xo'jalik tartibining asosiy turini tashkil etgan.

Ikkinchi paragraf **“Shimoli-g'arbiy Ustrushona yozma manbalarda”** deb nomlanib, Ustrushonaning qadim va ilk o'rta asrlar davri yozma manbalarda yoritilishi bayon etiladi. Ushbu tarixiy geografik o'lkaning qadim va ilk o'rta asrlar davri tarixi haqida yozma manbalarda ham kam miqdorda ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Xitoy solnomachisi Syuan-Szan Yecha shahri yaqinida joylashgan doimo yonib turuvchi g'or va unga e'tiqod jarayonini tasvirlaydi¹⁷. Unga ko'ra aholi har yili ikki marta yonib turuvchi g'orga qurbonlik keltirishgan va sig'inishgan.

Shuningdek, Xitoy manbalarida Ustrushona hududida yashagan aholining qadimgi yozuvi haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Xususan, Xitoy yilnomalarida Davon (Farg'ona)dan g'arbda Ansi (Prifiya)gacha bo'lgan yurtlarda turli lahjalarda gaplashilsa-da, ularning yozuvi bir-biriga o'xshashligi va aholi bir-birini tushunishi aytiladi¹⁸. Mazkur ma'lumotlar Chilxujra yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida o'z isbotini topgan. Yodgorlikning ilk o'rta asr qatlamlaridan olingan yog'och taxtachalarga bitilgan qadimgi Ustrushona yozuvi haqiqatdan ham sug'd yozuvlariga o'xshashligi aniqlangan¹⁹. Xususan V.A. Livshits sug'd hujjatlari

¹⁷ Грицина А. А., Мамаджанова С. Д., Мукимов Р. С. Археология, история и архитектура средневековой Уструшаны. МИЦАИ. –Самарканд, 2013. –С.10-11.

¹⁸ Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. –М.-Л. Изд. АН СССР. 1950. –С. 188;

¹⁹ Пулатов У. П. Чильхуджра. // МКУ. Вып. 3. –Душанбе, 1975. 1975. –С. 81-85; рис 44-45

tahlili asosida bu o'lka aslida «Ustrushona» shaklida nomlanganligini isbotladi. Ayni vaqtda bir qancha manbashunos olimlar (M.Ye.Sergeenko, V.S.Sokolova, I.V.Pyankov, R.V.Vyatkina, V.S.Taskina va boshqalar) tomonidan qadimgi mualliflarning «qadimiy Ustrushona» hududini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etuvchi bir qancha asarlari alohida tadqiq etilib, tarjima qilindi²⁰. Gatlarda va Kichik Avestoda devlarga topinuvchilar va koxinlar zardusht koxinlaridan farq qiluvchi atamalardan foydalanilgan. Biz uchun ulardan uchasi – “kava”, “karap” va “usij” kabi atamalar alohida ahamiyatga molik. Shulardan “kava” atamasi xindoevropa til guruxiga oid atama bo'lib, “chaqirmoq”, “baqirmoq” ma'nosini anglatgan²¹. Atamaning devlarga topinuvchilarga bog'liqligi borasida “”taqlidchi”, “o'rinbosar”, “ifodalovchi” ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, o'z o'rnida koxin o'rnida uning vazifalarini noto'g'ri bajargan shaxslarga aytilgan²². Bizning fikrimizcha, Hovos nomining asosi “kava” so'zi bo'lib, “k” va “x” tovushlari almashishidan hosil bo'lgan. Bu xolat shuni anglatadiki, bu hududda aholining bir qismi arxaik tasavvurlarni saqlab qolgan va ruhlarga sig'inishni davom ettirgan. Yana bir misol: Ustrushonaning qadimgi aholisi orasida “mug” va “miq” kabi atamalar saqlanib qolgan, ular ruhoniy, diniy marosimlarni bajaruvchi mu'badni aniqlash uchun ishlatilgan. Bu unsurlar qadimgi va ilk o'rta asrlarda bu hududda zardushtiylikgacha bo'lgan ba'zi e'tiqod va kultlar saqlanib qolganligidan dalolat beradi.

Uchinchi paragraf **“Shimoli-g'arbiy Ustrushona arxeologik manbalarda”** deb nomlanib, bu qismda o'lkaning arxeologik o'rganilishi tahlil etilgan. Tarixiy geografik o'lka hududida o'tgan asrning 40-yillaridan boshlab tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lsada, muntazam tadqiqotlar ancha kech boshlanadi. Umuman, Ustrushona tarixiy geografik o'lkasi hududidagi arxeologik izlanishlarni shartli ravishda quyidagi uch davrga ajratish mumkin:

I- davr XIX asr oxiri - XX asrning 40 - yillarigacha. Bu davrda olib borilgan tadqiqotlar hudud haqidagi dastlabki ma'lumotlarni to'plash, shuningdek, qurilish rekonstruksiya ishlari davomida yoki tasodifiy topilmalarni tahlil qilishdan iborat bo'lgan. Jumladan, yozma manbalar tahlili asosida V. V. Bartold tomonidan ilk marotaba Ustrushona tarixiy-geografik o'lkasi tushunchasi ilmiy muomalaga kiritildi²³. Shuningdek, Ustrushona o'lkasining arxeologik yodgorliklari haqida turli tadqiqotchilar, xususan, Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zolari ilmiy ishlanmalarida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

II- davr 1943 yildan - 70 yillar o'rtalarigacha. 1943-1944 yillarda V. F. Gaydukevich boshchiligidagi Farhod arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Farhod

²⁰ Пьянков И. В. Среднеазиатские сатрапии Ахамединов в конце V в. до н.э. // ВДИ -№2. –Москва, 1965. –С. 35-50., Пьянков И. В. Список восточных сатрапий державы Ахамединов у Ктесия / МКТ. Вып. 2. –Душанбе, 1975., Сыма Цянь. «Исторические записки («Ши цзи»). Т.1. Пер.с китайского и комментарии Р. В. Вяткиной и В. С. Таскиной. -М., 1972., Арриан Флавий. Анабасис Александра или история паходов Александра Великого. -М.-Л. Изд. АН СССР. 1962., Квинт Курций Руф. «История Александра Македонского». Сохранившийся книги. Под ред. В.С.Соколова. –Москва, 1963. –С. 25

²¹ Pokorny J. Indogermanisches etymologisches Wörterbuch. -Tübingen; Basel: Francke,1994. –P. 403.

²² Turner R. L.A comparative dictionary of the Indo&Aryan languages. –London. Oxford University Press, 1962–1966. –P. 151.

²³ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. // Соч. Т.1. – М.: Наука. 1963. –С. 585.

GESining qurilishi munosabati bilan boshlanadi²⁴. Tadqiqotlar natijasida ko‘chmanchi chorvadorlarga tegishli bo‘lgan bir qancha mozor qo‘rg‘onlar o‘rni aniqlangan. A.Yu.Yakubovskiy rahbarligidagi Sug‘d-Tojik ekspeditsiyasining O.I.Smirnova boshchiligidagi otryadi 1949-1950 yillar Ustrushona hududida arxeologik yodgorliklarni aniqlash ishlarini olib bordi²⁵. Otryad tomonidan ko‘plab moddiy yodgorliklar aniqlanib, ularning ba‘zilarida ilk qazish ishlari amalga oshirildi. (Qalai Qahqaha I, II, Mug‘tepa). 50-yillarda O‘zbek-Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasining Moxandaryo otryadi tomonidan Jizzax atrofida ilmiy izlanishlar olib borilib, qadim va ilk o‘rta asrlarga oid bir qator yodgorliklar aniqlandi²⁶.

1955 yildan 1960 yilgacha faoliyat ko‘rsatgan Tojikiston Arxeologik ekspeditsiyasining Xo‘jand-Ustrushona otryadi alohida yodgorliklarda (Qalai Qahqaha I-II, Mug‘tepa, Tirmizaktepa, O‘rtaqo‘rg‘on) qazuv tadqiqot ishlarini boshlab berdi. Otryad tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida hududning arxeologik xaritasi yana bir qator yangi moddiy yodgorliklar bilan boyitildi²⁷.

XX asrning 60-yillaridan boshlab N. N. Negmatov rahbarligidagi Shimoliy Tojikiston otryadining alohida ishlarini ko‘rsatib o‘tish kerak. Jumladan, (Qalai Qahqaha I-II-III, Tirmizaktepa, O‘rtaqo‘rg‘on, Chilxujra, Xon Yaylov)²⁸ yodgorliklarida qazuv tadqiqot ishlari davom ettirildi. Shu bilan birga bir qator yodgorliklarda (Mug‘tepa, Do‘ngchatepa, Childuxtaron, Toshtemirtepa, Shirin) stratigrafik, planigrafik ishlar olib borildi²⁹.

1960-70 yillarda Ustrushonaning O‘zbekiston qismida alohida olingan yodgorliklarda maxsus qazuv tadqiqot ishlari olib borilmagan bo‘lsa ham, hududning arxeologik xaritasini yaratish yo‘lida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida, jumladan, Sangzor, Zominsuv havzalarining tog‘li qismida olib borilgan aniqlashtirish ishlari alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin³⁰. 60-yillarda V. A. Nilsen tarafidan Nurota shahristonida ba‘zi bir qazuv tadqiqot ishlari olib borildi³¹.

Umuman olganda bu davr (1943-1975 yillar) Ustrushona tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga egadir. Tadqiqotchilar tomonidan Shimoliy

²⁴ Гайдукевич В. Ф. Работы Фархадской археологической экспедиции Узбекистана в 1943-1944 гг (Предварительное сообщение). // КСИИМК. Вып. XV. –Москва, 1947. –С. 92-109; Гайдукевич В. Ф. Керамическая обжигательная печь Мунчактепе. // КСИИМК. Вып. XXVIII. –Москва, 1949. –С. 77-82; Гайдукевич В. Ф. Могильник близ Ширинсая в Узбекистане // СА. - №: XIV. –Москва, 1952. –С. 331-359.

²⁵ Смирнова О. И. Археологические разведки в Уструшане 1950 г. // МИА. Т.37. –Москва, 1953. –С. 189-230.

²⁶ Альбаум Л. И. Буддийский храм в долине Сангзар // ДАН УзССР. –Т., 1955. –С. 57-59., Мухаммаджонов А. Р. Сирли тошлар изидан // Фан ва турмуш. –Т. 1957. -№ 1. –Б. 16-18.

²⁷ Негматов Н. Н., Салтовская Е. Д. О работах Ходжентского-Уструшанского отряда в 1960 г. // ТИИ АН. Тадж. ССР. Т. XXXIV. –Душанбе, 1962. –С. 69-89., Ранов В. А. Салтовская Е. Д. О работах Уратюбинского отряда в 1959 г. // ТИИ АН Тадж. ССР. Т. 34. –Душанбе, 1961. –С. 108-128.

²⁸ Негматов Н. Н. Исследования Северо-гаджикистанского археологического отряда в 1973 г. //АРТ (1973). Вып. XIII. – Душанбе: 1977. –С. 112-136., Негматов Н. Н., Хмельницкий С. Г. Средневековый Шахристан. – Душанбе.1966. -200с., Пулатов У. П. Замок Тоштемиртепа. //АРТ (1975). Вып. XV. –Душанбе, 1980. –С. 303-316., Пулатов У. П. Чильхуждра. // МКУ. Вып. 3. –Душанбе, 1975. –С. 187.

²⁹ Негматов Н. Н., Мирбабаев А. К., Абдурасулов М. А. Начало раскопок городища Ширин (Предварительное сообщение). //АРТ (1976). Вып. XVI. –Душанбе, 1982. –С. 292-307.

³⁰ Аминжанова М. Археологическая разведка в Зааминском районе. // ИМКУ. Вып.8. – Ташкент, 1969. –С. 137-142., Немцова Н. Б., Дресвянская Г. Я. Памятники Заamina и его округу (К археологической карте Северной Уструшаны.) // ИМКУ. Вып. 20. – Ташкент, 1986. –С. 221-229.

³¹ Нильсен В. А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V-VIII вв). – Ташкент, 1966. –С. 332.

Ustrushonaning cho'l qismini (Sirdaryo viloyati) hisobga olmaganda hududning ayrim qismlari arxeologik xaritasi ishlab chiqildi.

III - davr 1970 yil o'rtalaridan - hozirgi kungacha. Bu davrda boshlangan yangi qo'riq yerlarni o'zlashtirish jarayoni ham yangidan - yangi yodgorliklarning ochilishi va o'rganilishiga turtki bo'ldi. Bu yillarda, umuman O'rta Osiyo shu jumladan, alohida tarixiy geografik hududlardagi arxeologik yodgorliklarni qayd qilish, hududlarning umumiy arxeologik xaritasini ishlab chiqish yo'nalishlaridagi tadqiqotlar davom ettirildi. Bu tadqiqotlar Ustrushona hududining O'zbekiston qismida (Shimoliy va Shimoliy-G'arbiy Ustrushona) O'zR FA Arxeologiya institutining Jizzax, Baxmal guruhlari, keyinchalik Choch-Ustrushona ekspeditsiyasining Jizzax, Sirdaryo, Zomin guruhlari tomonidan olib borildi³².

Ustrushonaning Tojikiston qismida bu yo'nalishdagi tadqiqotlar Shimoliy Tojikiston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi guruhlari tomonidan amalga oshirildi³³.

Ayni vaqtda 70-90 yillarda tadqiqotchilar tomonidan turli davrlarga oid alohida yodgorliklarning ba'zilarida olib borilgan dala qazuv tadqiqot ishlari yakunlandi. (Toshtemirtepa, Qing'irtepa I, Qing'irtepa II, Almantepa, Do'ngchatepa, Qalai Sor, Mik)³⁴. Shu bilan birga bir qator yodgorliklarda oldin boshlangan qazuv tadqiqot ishlari muvaffaqiyat bilan davom ettirildi (Nurtepa, Qaliyatepa, Rasulboyqultepa, Pardaqultepa, Komilbobotepa, Xontepa, Kultepa, Nurota)³⁵.

Umuman ko'chmanchi chorvadorlar madaniyatini o'rganish borasidagi izlanishlarning katta qismi mualliflar tomonidan ilmiy muomilaga kiritilmagan bo'lsa, yana bir qismida asosan mozor-qo'rg'onlarning tuzilishi, siyosiy jarayonlar, halqlarning migratsiya masalalari asosiy predmetni tashkil qilgan. Lekin turli antropogen landshaftga ega Ustrushonaning ma'naviy hayoti, shaharlashgan o'troq aholisi va ko'chmanchi chorvadorlar madaniyatlari o'rtasidagi ma'naviy aloqalar, o'xshashliklar va o'ziga xosliklar, shuningdek Markaziy Osiyoning boshqa tarixiy o'lkalari bilan madaniy aloqalari jarayonlari ko'rsatib berilmagan.

Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni tahlil qilgan holda quyidagi

³² Ртвеладзе Э. В., Исхаков М. Х., Маликов О. С. Исследования в Сурхандарьинской и Джизакской областях. // АО 1977 г. –Москва, 1978. –С. 536-537., Бердимуродов А. Э. Раннесредневековые археологические памятники Джизакского оазиса. АКД. –Москва, 1985. –С. 23., Грицина А. А. Северная Уструшана в середине 1 тысячелетия до н.э. – в начале XIII в н.э. (Археолого-топографическое исследование). АКД... –Самарканд. 1990. –С. 24.

³³ Билалов А. И. О работе горного археолого-топографического отряда СТАКЭ в 1974г. //АРТ (1974). Вып. XIV. –Душанбе, 1979. –С. 356-364., Билалов А.И. Из истории ирригации Уструшаны. (МКУ. Вып. 4). – Душанбе, 1980. –С. 191

³⁴ Пулатов У. П. Замок Тоштемиртепа. //АРТ (1975). Вып. XV. –Душанбе, 1980. –С. 303-316., Салтовская Е. Д. О раскопках Дунгчатепе // АРТ (1977). Вып. XVII. –Душанбе, 1983. –С. 263-277., Пулатов У.П. Раскопки Калаи Соре в 1983г. //АРТ (1983). Вып. XXIII. –Душанбе, 1991. –С. 47-57., Сверчков Л.М. Поселение Мык – источник по истории средневековой истории Уструшаны. АКД. –Самарканд. 1991. –С. 24.

³⁵ Негматов Н. Н., Беляева Т. В. Общий отчет об исследованиях Нуртепе в 1980-1985гг и продолжения работ по дальнейшему изучению и сохранению памятника //АРТ (1985). Вып. XXV. – Душанбе, 1994. –С. 23-27., Пардаев М. Х. Буюк Ипак йўли ёқасидаги “Дизак” шаҳри ўрни тўғрисида. // Буюк Ипак йули ёқасидаги Марказий Осиё шаҳарлари. Самарканд. 1994й. 30 март. –Самарканд, 1994. –Б. 49-50., Грицина А. А. Северная Уструшана в середине 1 тысячелетия до н.э. – в начале XIII в н.э. (Археолого-топографическое исследование). АКД... –Самарканд, 1990. –С. 24.

Грицина А. А. Городища Нурата // ИМКУ. Вып. 27. –Самарканд, 1996. –С. 82-92.

xulosa chiqarish mumkin. Hozirgi kungacha bo'lgan davrda umumiy hisobda shimoli-g'arbiy Ustrushona hududida turli davrlarga oid 800 dan oshiq arxeologik yodgorlik aniqlanib, xaritalashtirilgan. Biroq bu yo'nalishdagi tahillar jarayonida ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Jumladan: a) Ustrushonaning janubiy qismidagi tog'li hududlari, Oqsuv va Bosmandasoy havzalari yuqori oqimlarida 1974 y. A. I. Bilalov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni hisobga olmagan to'liq o'rganilmagan. b) Shimoliy va shimoliy-g'arbiy Ustrushona oralig'idagi Ravotsoy va Oqbuloqsoy havzalari ham arxeologik jihatdan to'liq tadqiq etilmagan.

O'tgan yillar davomida Ustrushona hududida 40 ga yaqin yodgorliklarda doimiy statsionar tadqiqotlar olib borildi. Bu yodgorliklarning 11 tasi qadimiy davrga, 26 tasi ilk o'rta asrlarga oid. Ushbu tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlar keng tahlil etilgan bo'lsada qadimda yashagan aholining ma'naviy madaniyati masalalari yoritilgan, ma'lumotlarni umumlashtirgan yagona ilmiy ish yaratilmagan. Bu o'ziga xos murakkab hayot tarziga ega bo'lgan Ustrushona hududining moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganishga qaratilgan tadqiqotning zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Shimoliy-g'arbiy Ustrushonada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar”** deb nomlanib uchta paragrafdan iborat. Birinchi paragraf **“Eski Xovos yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar”** deb nomlanib, Eski Xovos yodgorligida olib borilgan tadqiqotlarga bag'ishlangan. Xovos yodgorligi haqidagi yozma ma'lumotlar asosan o'rta asr sayyoh va tarixchi-geograflari asarlarida saqlanib qolgan. Yoqutning (XIII asr) ma'lumotlarida **“Xovos - bu Ustrushonadagi qishloq”** deb talqin qilingan. Ibn Xo'rdodbeh (IX asr) o'zining mashhur **“Yo'llar va mamlakatlar kitobi”** asarida Xovosdan qo'shni hududlargacha va ulardan Xovosgacha bo'lgan masofalar haqida to'xtalib o'tadi. Xovosni **“kent”** tarzida bir necha bor Bobur Mirzo (XVI asr) tilga oladi³⁶.

Mavzu yuzasidan o'tqazilgan tadqiqotlar Havas yodgorligi shaxristonining sharqiy qismidagi uchinchi pastki terrasasini deyarli markazida joylashgan (shaxriston II). Ushbu qazishmada arxeologik tadqiqot ishlari 2003 yilda boshlangan bo'lib, bu yerda 2004 yil va 2014-15 yillarda davom ettirildi. Qazishmalar jarayonida kengligi 35-40 sm bo'lgan qolipli paxsa yordamida qurilgan devor ochilgan bo'lib, bu shakldagi paxsa devorlar ilk o'rta asrlarga oid me'morchilikda keng qo'llanilgan. Ular O'rta Osiyoning ko'plab yodgorliklarda ochib o'rganilgan. Qazishmaning shimoliy tomonga kengaytirilgan qismida ho'jalik va olovga topinish xonalari (ikkita xona) o'rni ochildi. O'choqning tuzilishi kvadrat shaklida ekanligi va markazida chuqurcha xosil qilinib cho'g' qo'yilganligi uning otashparastlik marosimlari bilan bog'liqligini ko'rsatib turadi.

Xonadagi o'choqlardan biri tuzilishga ko'ra taom pishirish uchun va qolgan ikkita o'choq esa olovga topinish maqsadida foydalanilgan taxmin qilishimiz mumkin. 2 va 4- xonalardagi o'choqlar Qalai-Qaxqaxa yodgorligida va Toxaristondagi Bolaliktepa yodgorligidagi o'choqlarga o'xshashdir. Shu kabi o'choqlar yaqin-yaqinga qadar O'zbekistonning tog'li o'lkalarida ishlatilib kelingan va **“yorma o'choq”** deb atalgan. Jumladan, O'rtaqo'rg'on shahar yodgorligida

³⁶ Захириддин Мухаммад Бобир. Бобирнома. Ўз ССР ФА нашриёти. – Тошкент, 1960. – Б. 65, 75

aniqlangan sajdagoh Xovos yodgorligida ochilgan sajdagoh bilan tuzilish jihatdan o'xshaydi. Bu kabi sajdagohlar Afrosiyob, Berkutqa'la, Oqtepa, Xorazm hududidagi Teshikqal'a yodgorliklarida ham o'rganilgan³⁷. O'choqning ko'milganligi olovga topinish yoki butlarga topinishning o'ziga xos an'alarini saqlashga bo'lgan urinishni yashirish xolatini o'zida aks ettirgan bo'lishi mumkin. Ushbu xonani biz aholi tomonidan ibodat marosimlari o'tkaziladigan joy deb belgiladik. Chunki uning poli ustida, ichki qismi shag'al tosh bilan to'ldirilgan kvadrat shakldagi qurilma o'rni ochildi. Uning o'lchami 90x95 sm, devori somon aralastirilgan loydan qurilgan va uni kengligi 20 sm, saqlanish balandligi 15-18 sm ni tashkil qiladi. Qurilmaning tosh to'plamasi qismining o'lchami 50-55 sm, qalinligi 4-6 sm. Ushbu qurilma sig'inish joyini ozoda saqlash uchun qandaydir udumlar yoki boshqa bir vazifa uchun xizmat qilgan bo'lishi mumkin. Tosh to'plamning ustida bir nechta oshiq va qo'y qovurg'a suyagi saqlanib qolgan. Ushbu omillarni hisobga olib ushbu qurilmaning o'ziga xos qiyosiy o'xshashliklarini aniqlandi. Bu kabi amallar ko'pgina yodgorliklarda qayd etilgan. Jumladan, Janubiy Sug'dda Yerqo'rg'on, Xontepa ibodatxonalarida ham diniy amallar bilan bog'liq ko'pgina jhozlar pol ostiga ko'milgan bo'lsa, Xorazmda Jigarband yodgorligida antropomorf o'choq ohistalik bilan ko'mib qo'yilganligi aniqlangan³⁸. Xovos yodgorligi ilk o'rta asrlar qatlamlaridan topilgan ayol ilohasi terrakota xaykalchasi Ustrushona hududida ham Buyuk ona-ilohasi, Nana-Anaxita ilohasi va yoki ajdodlar ruhi e'tiqodi keng tarqalganligini ko'rsatadi.

Ikkinchi paragraf **“To'rtko'ltepa yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar”** deb nomlanib, o'rta asrlar davri manbalarida Bushagar (Shagara) deb atalgan Pishag'orsoy xavzasida joylashgan To'rtko'ltepa yodgorligida olib borilgan arxeologik qazuv tadqiqotlari va ilmiy natijalariga bag'ishlangan Ustrushonaning tog' rustoqlaridan biri bo'lgan. X asrda arab sayyohi Ibn Xauqal, “o'z shahriga ega bo'lmagan rustoqlar quyidagilar: Bushagar, Mesxa, Burgar, Bangam, Mink, Besken va Isbaskent” deya ma'lumot beradi³⁹. N. N. Negmatov Bushagar yoki Shavdar rustoqi Pishag'or qishlog'i va unga yaqin bo'lgan Shavdar tog'ining shimoliy etagida joylashganligini lokalizatsiya qiladi. Mikrovohadan topilgan ossuariy namunalari, metallardan tayyorlangan ko'chma otashgoh va xumli qabrlar hududda tadqiqotlar olib borishimiz uchun asos bo'ldi. Pishag'orsoyning o'ng qirg'og'ida, o'rta asrlarga tegishli Beshbuloqtepa shaxar yodgorligi yaqinida joylashgan To'rtko'ltepa yodgorligi tadqiqot ob'ekti sifatida tanlandi. Yodgorlikdagi arxeologik izlanishlar tepalikning bitta joyida rejalik qazishma va yana ikkita joyida aniqlashtiruvchi qazuv ishlari olib borildi. Qazilma ishlari natijasida buqa boshini eslatuvchi sopol qopqoq bo'lagi va ona ilohasi haykalchasi aniqlandi.

Pshag'arsoy mikrovohasi ilk o'rta asrlar aholisining ma'naviy dunyosi haqida xulosalar chiqarishda To'rtko'ltepa yodgorligida olib qazuv ishlarida aniqlangan it yoki bo'ri bosh suyagini ko'mish, uning yuqorisiga ichiga tuxum solingan idishni ag'darib ters qo'yish odatlari muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, marosim

³⁷ Негматов Н. Н., Пулатов У. П., Хмельницкий С. Г. Уртакурган и Тирмизактепа. – Душанбе, 1973. – С. 34

³⁸ Вишневская О. А., Рапопорт Ю. А. Следы почитания огня в средневековом хорезмском городе // Этнография и археология Средней Азии. – Москва. 1979. – С. 110.

³⁹ Грицина А. А. К локализации рустака Бушагар. // ОНУ-№ 4-5. – Т. 1996. – С. 101-102.,

totemizm bilan bog'liq g'oyalarni aks ettiradi va mahalliy aholi guruhlari orasida arxaik g'oyalar rudimentlari saqlanib qolganligini ko'rsatadi. Bu erda hayvonning bosh suyagi totemni ko'rsatishi mumkin, teskari idish esa narigi dunyoni (o'liklar dunyosini) anglatadi va dunyoning deyarli barcha madaniyatlarida tuxumning semantikasi qayta tug'ilishni anglatadi. Qadimdan Markaziy Osiyo xalqlari hayotida turli jonivorlar totem sifatida va ximoyalovchi xomiy sifatida qabul qilingan. Jumladan, Ustrushona aholisi ma'naviy madaniyatida va e'tiqodida zoolatrik tasavvurlar, kultlar alohida o'rin egallaydi. Qadimda bo'ri, ot, buqa, it, tuyalar Ustrushonada totem sifatida qabul qilinganligi haqida ma'lumotlar bor. Ulardan bo'ri va it kulti aholi e'tiqodida katta o'rin egallaydi⁴⁰.

To'rtko'ltepa yodgorligida olib borilgan arxeologik qazishmalarning ilk o'rta asrlar qatlami sopol majmuasini eramizning IV-V asrlarlari bilan davrlashtirish mumkin.

To'rtko'ltepa yodgorligini arxeologik tadqiq qilish asnosida Pishag'orsoy havzasi yodgorliklari va mahalliy aholi tomonidan aniqlangan tasodifiy topilmalarni qayd qilish ishlari ham olib borildi. Umuman To'rtko'ltepa yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar yakunida xulosa qilib aytish mumkinki, olib borilgan qazuv ishlari davomida To'rtko'ltepa yodgorligi tog'li hududda ilk o'rta asrlarda paydo bo'lgan kichik shaharcha bo'lganligi aniqlandi. Zomin tog'larining shimoliy qismida joylashgan shaharcha aholisi aralash xo'jalik tartibini olib borishgan. Aholi tog' yonbag'irlarida yilning issiq oylarida chorvachilik bilan shug'ullangan, shu bilan birgalikda, tog'dan tushuvchi soy va jilg'alarning ko'pligi bois bog'dorchilik va adir hududlarida esa lalmi dehqonchilik bilan hayot kechirishgan. Bundan tashqari Boshpishag'or qishlog'i atrofi ko'zdan kechirilganda hudud yovvoyi yong'oq, do'lana, jiyda, olma kabi mevalarga shuningdek turli hayvonlarga boyligi bois ovchilik va termachilik ham ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutganligini taxmin qilish mumkin. Mazkur fikrlarimizni etnografik ma'lumotlar va hududning tabiiy geografik sharoitini o'rganish davomida qo'lga kiritgan ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Ma'naviy hayotda Sug'dning ta'siri ham sezilib, e'tiqodlar va dunyoqarashda ikki xil an'analar qorishuvi kuzatiladi. Ya'ni, ilk o'rta asrlarda Pishag'orsoy mikrovohasida yashagan tog'lik aholi hayotida mahalliy totem hayvonlarga e'tiqod qilish an'anasi bilan birgalikda, zardo'shtiylik keng tarqalgan.

Uchinchi paragraf **“Shimoliy - g'arbiy Ustrushona mozorqo'rg'onlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar”** deb nomlanib, Ustrushona hududi aholisining ma'naviy hayoti, dunyoqarashi haqida ko'chmanchi chorvadorlarga tegishli mozorqo'rg'onlar ham muhim ma'lumotlarni beradi. 2021 yilda Jizzax viloyati Qipchoq va Bog'ishamol qishloqlaridan chiquvchi tog' tepasida, Jelli-g'uli qishlog'iga tutash tog'ning sharqiy qismidagi qoyalarda tosh quti qabrlar aniqlandi. Bu qabrlar yasalish shakliga ko'ra Oltoy o'lkasidagi Qorako'l madaniyatiga oid qabrlar va Kavkazning shimoli – g'arbiy hududlaridagi so'nggi bronza davri qo'rg'onlariga o'xshaydi. Ustrushonaning so'nggi bronza davriga oid yuqorida

⁴⁰ Мамиров О. У. Илк ўрта асрларда Уструшона аҳолисининг зоолатрик саждалари (археологик ва этнологик материаллар асосида). // “Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (қадимги даврдан ҳозиргача)”. –Жиззах, 2020. –Б. 77.

keltirilgan tadqiqotlarni umumlashtirsak va yodgorliklarning hududiy joylashishlari asosida fikr yuritadigan bo‘lsak, Ustrushona ham mil.av. II-I ming yilliklarning chegarasidan boshlab qadimgi o‘troq dehqonchilik viloyatlari bilan madaniy aloqalar o‘rnatgan Andronovo chorvador qabilalari tomonidan faol o‘zlashtirib boshlanganligi aniqlandi. Janubiy Farg‘onaning adirlik zonalaridan bronza davrining dasht qabilalari madaniyatiga tegishli Vodil, Qaramqo‘l, Yapagi, Chek, Xo‘ja Yagona, Daxana, Qashqarchi, Dashti Asht mozorqo‘rg‘onlari ham o‘rganilgan. 1956 yilda B.A. Litvinskiy ularni Andronovo madaniyati tarqalgan hududga kiruvchi Qayroqqum madaniyati vakillari bo‘lganligi borasidagi fikrini ilgari suradi. Aniqlangan mozorqo‘rg‘onlar va ularning tuzilishi Qayroqqum madaniyati namunalari bilan o‘xshashligi aniqlandi.

Ustrushona aholisining ma‘naviy hayoti, dunyoqarashi haqida antik va ilk o‘rta asrlar davri ko‘chmanchi chorvadorlarga tegishli mozorqo‘rg‘onlar ham muhim ma‘lumotlar beradi. Bu borada yangi ma‘lumotlar olish va taqqoslash uchun Sayxonsoy qishlog‘ining Morguzar tog‘lariga tutash yonbag‘irlarida joylashgan mozorqo‘rg‘onlarda qazuv ishlari olib borildi. Muzorqo‘rg‘onlar egallagan maydon janub tomondan baland tog‘liklarga tutash ketgan, shimol tomoni esa bepoyon adirliklardan iborat. Muzorqo‘rg‘onlar joylashgan hududga tutash Takatosh manzilidan, neolitdan bronza davrigacha va keyingilari esa antik va o‘rta asrga oid qoyatoshlarga o‘yib ishlangan 1000 dan ortiq rasmlar galareyasi o‘rganilgan⁴¹. Olingan ma‘lumotlarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, Sayxonsoy mozorqo‘rg‘onlarining Ustrushona hududida avvalgi yillarda o‘rganilgan bir qancha mozorqo‘rg‘onlar bilan o‘zaro umumiy xususiyatalari va o‘ziga xosliklari ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Sag‘anoq mozorqo‘rg‘onlaridagi qabrlar katakomba shaklida bo‘lib, Sayxonsoy mozorqo‘rg‘onlarida bo‘lgani kabi yo‘lakning oxirida lahad yonida chuqurligi 5-8 sm bo‘lgan uchta chuqurcha qilingan va jasad qamishdan qilingan to‘shama ustiga yotqizilgan. Shuningdek, jasad yoniga sopol idish va temirdan yasalgan pichoq hamda, qo‘yning bosh suyagi bo‘laklari qo‘yilib dafn etilgan. Biroq Sag‘anoq mozorqo‘rg‘onlarida yakka holdagi dafn etish odati kuzatiladi.

Ustrushona hududida keyingi yillarda, mukammal o‘rganilayotgan mozorqo‘rg‘onlardan biri G‘ulbo mozorqo‘rg‘onlarida ham jasadni yoqib dafn etish odatlari va ularning ostiga qamishdan to‘shama qilish usullari qayd etilgan bo‘lsa, Molguzar tog‘larining Kamar vodiysida, Bekkeldi qishlog‘ini sharq tomondan o‘rab turuvchi baland tog‘ yonbag‘irlari bo‘ylab joylashgan Bekkeldi mozorqo‘rg‘onlarida ayol kishi jasadi yoniga ko‘zgu qo‘yib dafn etish odati kuzatiladi⁴². Ustrushona hududlarida o‘rganilgan yodgorliklari orasida o‘zining boy materiallari bilan ajralib turuvchi Shirinsoy mozorqo‘rg‘onlarida ham qabrlarga yakka jasadli qabrlar bilan birgalikda, juft, ba‘zi holatlarda guruhli tarzda dafn etish holatlari kuzatilgan. Ustrushona hududida o‘rganilgan deyarli barcha mozorqo‘rg‘onlardagi qabrlar yoniga qo‘y jonliq sifatida qo‘yilgan bo‘lsa,

⁴¹ Сулейманов Р. Х. Вопросы культурогенеза и глоттогенеза Центральной Азии эпохи бронзы и раннего железного века // Культуры азиатской части Евразии в древности и средневекье. – Самарканд. 2021. – С. 138

⁴² Тошбоев Ф. Э. Уструшона чорвадорларининг антик даврдаги маданияти. –Тошкент, 2014. –Б. 78-79.

Sayxonsoy mozorqo'rg'onlarida jasad yoniga it yoki bo'ri bosh suyagi ham qo'yilgan. Shu sababli aytish mumkinki, Sayxonsoy mozorqo'rg'onlari Ustrushona aholisining ma'naviy madaniyatiga oid yangi ma'lumotlar beradi.

